

GOLSHTIN ZOTLI TURLI LINIYAGA MANSUB YANGI TUQQAN SIGIRLARNING 90 KUNLIK SUT MAHSULDORLIGI

Sh.B.Tursunboyev

**Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot institutining
mustaqil izlanuvchisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15632705>

Annotatsiya: Maqolada Daniya seleksiyasiga mansub turli liniyadagi golshtin zotli 1-avlod sigirlar laktasiyasining dastlabki 90 kunidagi sut mahsuldorligini o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqot natijalari keltirilgan va tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Daniya seleksiyasi, Golshteyn zoti, liniyasi, Oman Justi, Ha Manfred, Arlinda 1-avlod, sigirlar, laktatsiya 90 kun, sut mahsuldorligi, yog'lilik, natija.

Annotation. The article presents and analyzes the results of scientific research on milk yield in the first 90 days of lactation of heifers of the 1st generation of Danish breeding.

Keywords: Danish selection, Holstein breed, line, Oman Justi, Ha Manfred, Arlinda 1st generation, heifers, lactation 90 days, milk yield, fat content, result.

Kirish. Sut mahsuldorligi bo'yicha yuqori mahsuldorlikga ega bo'lgan sigirlarni etishtirish nafaqat sut ishlab chiqarish hajmini oshirishda, balki ko'plab mahsuldorligi bo'yicha irsiy imkoniyatlari yuqori yosh naslli mollar yetishtirishda ham katta amaliy ahamiyatga ega. Daniya seleksiyasidagi turli liniyalarga mansub sigirlar laktasiyasining dastlabki 90 kuni mobaynida sut mahsuldorligini o'rganish ularning sersut qilish imkoniyatini va mahsuldorligi bo'yicha irsiy salohiyatini baholashda katta ahamiyatga egadir.

Natijalar va munozara. Biz shu nuqtai nazardan tadqiqotlarimizda Daniya seleksiyasiga mansub golshtin zotli birinchi tug'ishdagi I-tajriba gurhi, II va III-tajriba guruhlaridagi sigirlarni 90 kun davomida sersut qilishda oziqlantirish ratsioni to'la qiymatli ratsion asosida va "Delaval" kompaniyasi mutaxassislari ishlab chiqilgan ratsion asosida sersut qilingan birinchi tug'ishdagi sigirlarni I-laktasiyasining dastlabki 90 kuni mobaynidagi sut mahsuldorligini o'rgandik. Uning natijalari 1-jadvalda keltiriladi.

1-jadval

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning 90 kunlik sersut qilish davrida sut mahsuldorligi n-15

Ko'rsatkichlar	Guruhlar		
	I-tajriba	II-tajriba	III-tajriba
	$\bar{X} \pm S \bar{x}$	$\bar{X} \pm S \bar{x}$	$\bar{X} \pm S \bar{x}$
Sut miqdori, kg	2440,8±718	2308,7±650	2226,0±580
Sut tarkibidagi yog', %	3,7±0,67	3,8±0,66	3,8±0,67
Sut yog'i chiqimi, kg	90,30±2,73	87,73±2,78	84,58±2,62
Sut tarkibidagi oqsil, %	3,52±0,63	3,53±0,62	3,54±0,63
Sut oqsili chiqimi, kg	85,92±2,56	81,50±2,61	78,80±2,46
4 %- li sut miqdori, kg	2257,7±680	2193,2±670	2114,7±508
Quruq modda, %	12,67±1,18	12,62±1,18	12,68±1,19
Yog'sizlantirilgan quruq sut qoldig'i, %	8,97	8,82	8,88

** $(P>0,99)$ *** $(P>0,999)$

Sigirlar mahsuldorligi 1-laktatsiyasining dastlabki 90 kuni mobaynidagi sut mahsuldorlik darajasiga bog'liq ekanligi va yuqori mahsuldorlikka ega sigirlar ozuqani sut bilan yaxshi darajada qoplash xususiyatlariga ega bo'lishi [Ashirov M.I., 2017] tadqiqotlarida ham aniqlangan. Barcha guruhlardagi sigirlar sutining tarkibidagi quruq modda, yog'sizlantirilgan quruq sut qoldig'i va sut qandi ko'rsatkichlari mavjud me'yorlar talabi darajasida bo'ldi. Bu ma'lumotlar sigirlarning laktatsiyasining dastlabki 90 kunidagi sut mahsuldorligi darajasi, ularning birinchi tug'ishidagi tirik vazniga, zotiga va zotdorligiga hamda turli tizimlarga bog'liqlikda o'rganildi. Tajribadagi birinchi tug'gan sigirlarni 90 kun davomida Oman Just, Ha Manfred, Arlinda liniyasiga mansub sigirlardan olingan avlodlarini sersut qilish ularning mahsuldorligi bo'yicha irsiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishining imkoniyatlari keng ekanligini ko'rsatadi.

Sigirlarning sut mahsuldorlik darajasi eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi va ularning nasl qiymatini baholaydi. Turli liniyalarga mansub Daniya seleksiyasidagi birinchi tug'ishdagi golshtin zotli sigirlarning 90 kun mobaynida sersut qilish davridagi sut mahsuldorligi keltiriladi. Tajribadagi birinchi tug'ishdagi sigirlarni sersut qilishda "Deloval" kompaniyasining ishlab chiqqan ratsioni EOB to'yimlilikini 20% oshirishning 90 kun sersut qilish davrida sut mahsuldorligiga ta'siri o'rganildi. Tajribadagi birinchi tug'gan Daniya seleksiyasidagi golshtin zotli sigirlarni 1-laktatsiyasini 90 kun davomida sersut qilishda I-tajriba guruhidagi sigirlaridan o'rtacha bir bosh evaziga 2440,8 kg sut mahsuloti ishlab chiqarilib bu ko'rsatkich tengqurlari II-tajriba guruhidagi birinchi tug'ishdagi sigirlarning o'rtacha sut mahsuldorligidan nisbatan 132,1 kg yoki 5,41 % $(P>0,999)$, III-tajriba guruhidagi sigirlarni o'rtacha sut mahsuldorligidan 214,8 kg-ga yoki 8,80% yuqori sut ishlab chiqarildi. II-tajriba guruhidagi sigirlardan o'rtacha 2308,7 kg sut ishlab chiqarilib III-tajriba guruhidagi tengdoshlari nisbatan esa 82,7 kg yoki 3,58 %-ga yoki $(P>0,999)$ ko'p sut mahsuloti ishlab chiqarildi.

Jadval ma'lumotlarining tahlilining ko'rsatishicha, I-tajriba guruhidagi sigirlar tengqurlari II-tajriba guruhidagi sigirlarga nisbatan sut yog' chiqimi 2,85 kg yoki 2,90 %, sut oqsil chiqimi 4,42 kg yoki 5,14%-ga, 4%li sut miqdori bo'yicha 71,1 kg yoki 3,0% $(P>0,999)$, tengdoshlari III-tajriba guruhidagi tengdoshlaridan o'rtacha sut yog'i chiqimi 3,92 kg yoki 4,11% $(P>0,999)$, sut oqsili chiqimi 7,12 kg yoki 8,3%-ga $(P>0,999)$, 4% sut miqdori bo'yicha 98,1 yoki 4,12% $(P>0,999)$ yuqoriroq bo'ldi.

Xulosa. Bizning ma'lumotlarimiz xulosalarini ham tasdiqlaydi yangi tuqqan sigirlarni sersut qilib borish rekordchi sigirlarni yetishtirish, yuqori mahsuldor Daniya seleksiyasiga mansub golshtin zotli sigirlardan olingan qizlaridan sutbop podalar yaratish, zotni takomillashtirish sur'atini oshirish va soha samaradorligini yaxshilashda muhim omil ekanligini ta'kidlaydilar.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [Аширов М.Е.], Аширов Б.М., Юлдашев А.А. "Разведение голштинского скота в Узбекистане" Монография, Ташкент 2020.
2. Nosirov U.N., Sobirov O. Naslni yaxshilang, yutasiz. Zooveterinariya jurnali. №8. 2008. 34-

35.

3. N.R.Ro'ziboyev, R.T.Saidova "Turli seleksiyaga mansub simmental zotli sigirlar laktasiyasining dastlabki 100 kunidagi sut mahsuldorligi" «CHORVACHILIK va NASLCHILIK ISHI» ilmiy-amaliy jurnali, 2023 yil 6-son.

4. Хафизов И.И., Куччиев У., Хафизов А.И.. Тўла қийматли озиқлантиришни ташкил этишнинг сигирлар сут маҳсулдорлигига таъсири. 2009 й., ж:"Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги" журналининг "Агро илм" иловаси., Тошкент, № 2-сон(6), 24-25б.